

KIBERXAVFSIZLIK VA INTELLEKTUAL MULKNI O'G'IRLASH: O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Aytimova Barshinay Mu'barrek qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakultetining 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kiberxavfsizlik sohasidagi intellektual mulkni o'g'irlash hodisasi huquqiy jihatdan tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, jumladan Jinoyat kodeksi, "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi qonun va mualliflik huquqiga oid normativ hujjatlar ko'rib chiqilgan. Raqamli muhitda intellektual mulkni himoya qilishdagi amaliy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kiberjinoyat, intellektual mulk, mualliflik huquqi, axborot xavfsizligi, raqamli o'g'irlik, piratlik, huquqiy tartibga solish.*

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet iqtisodiyotining kengayishi intellektual mulkni himoya qilish masalasini butun dunyo bo'yicha eng dolzarb huquqiy muammolardan biriga aylantirdi. O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli raqamlashtirish islohotlari ushbu muammoni yanada keskinlashtirmoqda.

Intellektual mulkni o'g'irlash-bu shaxsning yoki tashkilotning ruxsatisiz uning intellektual mehnat mahsuloti ya'ni dasturiy ta'minot, badiiy asar, tijorat siri, patentlangan ixtirodan foydalanish, ko'paytirish yoki tarqatishdir. Kibermuhitda bunday o'g'irlik an'anaviy fizik o'g'irlikdan tezroq, ommaviyroq va isbotlash jihatidan murakkabiroq tarzda amalga oshiriladi. Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli piratlikdan yillik global zarar 600 milliard dollardan oshadi. O'zbekistonda ham dasturiy ta'minot piratligining darajasi xalqaro ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanligi qayd etilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida kiberxavfsizlik va intellektual mulkni o'g'irlashni tartibga solishdagi huquqiy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Intellektual mulk deganda inson aqliy faoliyati natijasida yaratilgan va qonun bilan himoyalangan nomoddiy ob'ektlar adabiy va badiiy asarlar, ixtirolar, sanoat namunalari, tijorat belgilari, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari tushuniladi. Kibermuhitda bu ob'ektlarning o'g'irlanishi bir necha asosiy shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, dasturiy ta'minotni noqonuniy nusxalash va tarqatish, litsenziyasiz foydalanish, himoya tizimini buzish va torrent orqali tarqatish. Bu holat

O'zbekistonda eng keng tarqalgan kiberjinoyat turlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ikkinchidan, mualliflik huquqi ob'ektlarini musiqa, film, kitob, foto ruxsatsiz tarqatish. Internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan bunday tarqatish amalda nazorat qilishni juda qiyinlashtiradi. Uchinchidan, tijorat sirini o'g'irlash raqobatchilar tomonidan kiberhujumlar orqali yoki kompaniya xodimlarining maxfiy ma'lumotlarni chiqarib berishi natijasida amalga oshiriladi. Bu turdagi jinoyat ayniqsa yirik korporatsiyalar uchun katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Huquqiy jihatdan intellektual mulkni o'g'irlash oddiy mulkiy jinoyatdan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi: ob'ekt nomoddiy bo'lganligi sababli "yo'qolmaydi", ya'ni o'g'irlash jabrlanuvchining undan foydalanishini to'xtatmaydi; jinoyat bir vaqtning o'zida millionlab nusxada amalga oshirilishi mumkin; yurisdiksiya muammosi jinoyatchi bir mamlakatda, server boshqasida, jabrlanuvchi uchinchi mamlakatda bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida intellektual mulkni kibermuhitda himoya qilish bir necha huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278(2)moddasi-"Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar" ni tartibga soladi. Ushbu modda kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirish, zararkunanda dasturlar yaratish va tarqatish, kompyuter axborotini yo'q qilish yoki o'zgartirish uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Biroq ushbu moddada intellektual mulkni o'g'irlash alohida mustaqil tarkib sifatida ajratilmagan bu esa amaliyotda ushbu normani qo'llashda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. 2022-yil 15-aprelda qabul qilingan "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi qonun O'zbekistonning kiberhavfsizlik sohasidagi asosiy me'yoriy hujjati hisoblanadi. Qonun axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini belgilab, davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolarning axborot xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatlarini tartibga soladi. Shu bilan birga, ushbu qonunda intellektual mulkni himoya qilish masalalari yetarli darajada aks ettirilmagan."Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi mualliflik huquqi ob'ektlarini belgilaydi va ularni noqonuniy foydalanishdan himoya mexanizmlarini nazarda tutadi. Ammo ushbu qonunning raqamli muhitga moslashtirish darajasi hali ham yetarli emas: streaming, cloud texnologiyalari va sun'iy intellekt yaratgan kontentga oid normalar mavjud emas. "Patentlar to'g'risida"gi qonun va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish joylari nomlari to'g'risida"gi qonun ham intellektual mulkni himoya qiluvchi hujjatlar tizimiga kiradi. Biroq bu qonunlar ham raqamli muhitdagi yangi tahdidlarni hisobga olgan holda yangilanishni talab etadi. Qonunchilikdagi asosiy kamchilik shundaki, mavjud normalar asosan an'anaviy, fizik muhitdagi intellektual mulkni himoya qilishga mo'ljallangan. Raqamli o'g'irlik, kiberhujumlar va onlayn piratlikka oid maxsus normalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Asosiy muammolar : isbotlash qiyinligi. Kiberjinoyatda raqamli izlar log fayllar, IP-manzillar, metadata muhim dalil bo'ladi. Biroq O'zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning katta qismi bunday dalillarni to'g'ri to'plash, saqlash va huquqiy

jihatdan rasmiylashtirish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega emas. Buning oqibatida ko'pgina kiberjinoyat ishlari sudda isbotlanmasdan qolmoqda. Keyingi muammo yurisdiksiya muammosi. Kibermuhitda jinoyatchi boshqa mamlakatda joylashgan serverdan foydalanishi, anonimlashtiruvchi texnologiyalar orqali o'z shaxsini yashirishi mumkin. O'zbekistonning xalqaro kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlik shartnomalar tizimi hali to'liq shakllanmagan. Xususan, O'zbekiston Budapesht Konventsiyasiga hali qo'shilmagan, bu esa xalqaro hamkorlikni qiyinlashtirmoqda. Sun'iy intellekt va yangi texnologiyalar bilan bog'liq huquqiy bo'shliqlar. Amaldagi qonunchilik sun'iy intellekt yaratgan asarlar, NFT, blokcheyn texnologiyasi asosidagi raqamli mulk ob'ektlarining mualliflik huquqiy maqomini belgilamaydi. Bu soha butun dunyo qonunchiligi uchun yangi bo'lsa-da, O'zbekiston ushbu masalaga tayyorgarlik ko'rish zarur.

Aniqlangan muammolar asosida quyidagi huquqiy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi taklif-qonunchilikni yangilash. Jinoyat kodeksiga intellektual mulkni raqamli muhitda o'g'irlashni alohida mustaqil jinoyat tarkibi sifatida kiritish zarur. Xususan, onlayn piratlik, tijorat sirini raqamli usulda o'g'irlash va dasturiy ta'minotni noqonuniy tarqatish uchun differensiallashtirilgan jazolar belgilanishi lozim. "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi qonun raqamli kontentni himoya qilishni, streaming, cloud xizmatlari va sun'iy intellekt asarlarini qamrab olgan holda yangilanishi kerak. Ikkinchi taklif-Budapesht Konventsiyasiga qo'shilish. O'zbekiston Respublikasi Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Yevropa Kengashi konventsiyasiga qo'shilishni ko'rib chiqishi zarur. Bu xalqaro hamkorlikni kuchaytiradi, xorijiy huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan tezkor ma'lumot almashish imkonini beradi va kiberjinoyatchilarga qarshi kurashning xalqaro mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini ochadi. Keyingi taklif bu- maxsus kibertergov bo'linmalarini rivojlantirish. Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati tarkibida raqamli forensika bo'yicha maxsus tayyorlangan xodimlar sonini oshirish, zamonaviy kibertergov uskunalari bilan jihozlash va xalqaro hamkorlik dasturlari INTERPOL Cybercrime, Europol EC3 bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. Shuningdek, O'zbekiston sun'iy intellekt texnologiyalari va ular yaratgan ob'ektlar mualliflik huquqiy maqomini belgilovchi maxsus qonun yoki qonunchilik normalarini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganib, milliy huquqiy bazaga tadbiq etishi zarur.

Xulosa : O'zbekiston Respublikasida intellektual mulkni kibermuhitda himoya qiluvchi qonunchilik bazasi mavjud bo'lsa da, u raqamli iqtisodiyotning tezkor rivojlanishidan orqada qolmoqda. Amaldagi normativ hujjatlar ko'proq an'anaviy muhitdagi munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan bo'lib, kiberjinoyatchilik tahdidlarining yangi shakllari va usullarini to'liq qamrab olmaydi. O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi muvaffaqiyati ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyotning huquqiy asosini mustahkamlashga, jumladan, kibermuhitda intellektual mulkni ishonchli himoya qilishga bog'liq. Bu esa o'z navbatida xorijiy

investorlarning ishonchini mustahkamlaydi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va raqamli sohadagi tadbirkorlikni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr. 278-modda.
2. "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2022-yil 15-aprel.
3. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
4. Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Yevropa Kengashi Konventsiyasi (Budapesht Konventsiyasi). 2001-yil 23-noyabr.
5. WIPO. Global Innovation Index 2023. World Intellectual Property Organization, Geneva, 2023.
6. Saidov A.X. Xalqaro huquq. – T.: Yuridik adabiyot, 2019. – 480 b.
7. Raximov F.X. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy muammolari // Huquq va jamiyat. – 2022. – №3. – B. 45–52.
8. Solehov B.T. Raqamli muhitda intellektual mulkni himoya qilish // O'zbekiston huquqi. – 2023. – №1. – B. 33–40.
9. Brenner S. Cybercrime and the Law: Challenges, Issues, and Outcomes. – Boston: Northeastern University Press, 2012. – 304 p.